

---

## Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib borilayotgan qurilish ishlari o'rganildi

Avval xabar berganimizdek, "Tashabbusli byudjet" loyihasi orqali Farg'ona shahrida keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. Joriy yilning 1-choragi yakuni bo'yicha shahrimizdagi 3 ta maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'z tashabbuslarini ilgari surdilar hamda g'olib bo'lishdi.

Farg'ona shahar hokimi o'rinbosari Yusufjon Yusupov mazkur ta'lim muassasalarida bo'lib, olib borilayotgan qurilish va ta'mirlash ishlarini o'rgandi. 3-DMTTda 4 ta yozgi ayvonlar qurildi, 32-DMTTning tashqi devorlari yangilanmoqda hamda 34-DMTTda ichki sanuzel tizimlarini yangilash ishlari yakuniga yetkazilmoqda.

Shahar hokimining o'rinbosari qurilish va montaj ishlarini tez va sifatli amalga oshirish, belgilangan muddatda topshirish bo'yicha mas'ullarga topshiriqlar berdi. Yo'l qo'yilgan kamchiliklar yuzasidan esa qurilish tashkilotlari rahbarlariga har bir ishga mas'uliyatli yondoshish lozimligini ta'kidlab o'tdi.

2022-07-23 02:11:45